

Date: 25<sup>th</sup> April-2025

**“DEVIANT” VA “DELIKVENT” XULQ-ATVOR TUSHUNCHALARI,  
MOHIYATI VA UNING TURLARI**

**Qahramon Axmedov**

O’zbekiston Milliy Universiteti o’qituvchisi

**Egamberdiyeva Go’zal**

O’zbekiston Milliy Universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Bugungi globallashuv va ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar davrida jamiyatda voyaga yetmaganlar o’rtasida delinkvent xulq-atvor – ya’ni ijtimoiy me’yorlarga zid, huquqbazarlikka moyil harakatlar soni ortib bormoqda. Bunday holatlar bolalarning shaxsiy taraqqiyoti, ijtimoiy moslashuvi va kelajakdagi jamiyatda tutadigan o’rniga salbiy ta’sir ko’rsatib, shu bilan birga jamiyat barqarorligiga ham xavf tug‘diradi. Ushbu maqolada “Deviant” va “Delikvent” xulq-atvor tushunchalari, mohiyati va uning turlari haqida ma`lumotlar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** Deviant, delikvent, me’yordan og‘ish, voyaga yetmagan shaxs, axloqiy me’yorlar, huquqbazarlik, jinoyat, tarbiya, anomiya, suitsid, oila, antisotsial, asotsial, tug‘ma moyillik.

Jamiyat va me’yorlar o’zaro bog‘liq murakkab tizimdir. Jamiyat rivojlangan sari, nafaqat ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yangiliklar yuzaga keladi, balki me’yorlarning o’zi ham, ularga bo‘lgan munosabat ham o’zgarib boradi. Shu bois me’yordan chetga chiqish, ya’ni uni buzish jamiyat uchun g‘ayritabiyy hol emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning tabiiy oqibati sifatida qaraladi. Agar shaxs jamiyat talablarini to‘liq qabul qilsa va ularga shartsiz amal qilsa, bu konformizm deb ataladi. Aksincha, me’yorlarni rad etish yoki ularni buzish esa deviatsiya deb yuritiladi va bu holat turli deviant xulq-atvor shakllarida namoyon bo‘ladi. Tarixan, jamiyat doimo inson xulq-atvorining norma va qadriyatlarga zid bo‘lgan shakllariga qarshi chiqqan. Chunki har qanday og‘ish, xoh u ijobiy bo‘lsin, xoh salbiy, mavjud ijtimoiy muvozanat va barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin. Shu bois jamiyat me’yordan og‘ishni o’z vaqtida aniqlashga, uni tahlil qilishga va nazorat qilishga intiladi.

Deviant xulq-atvor (lotincha “deviare” – og‘ish, chekinish) - bu jamiyat tomonidan belgilangan ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar va qoidalardan chetga chiqadigan xatti-harakatlardir. Bunday xatti-harakatlar jamiyat tomonidan nomaqbul, g‘ayrioddiy yoki ijtimoiy jihatdan xavfli deb baholanadi.

Deviant xatti-harakatlar ijtimoiy nazorat tizimi – ya’ni qonunlar, axloqiy me’yorlar, urf-odatlar orqali tartibga solinadi. Har qanday jamiyatda ayrim individlar bu me’yorlarga rioya qilmaslik holatini namoyon qilishi mumkin, bu esa ularni “deviant” sifatida tasniflashga olib keladi.

❖ Deviant xulq-atvor turlari sifatida quyidagilarni keltieishimiz mumkun.

Ijobiy deviatsiya jamiyat me’yordan og‘ish bo‘lsa-da, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi (masalan, ilm-fan, san’atdagi yangiliklar, jasorat, qahramonlik).

Date: 25<sup>th</sup> April-2025

Salbiy deviatsiya jamiyatga ziyon yetkazadigan, ijtimoiy muvozanatga tahdid soladigan harakatlar (masalan, jinoyat, giyohvandlik, fohishabozlik, tajovuzkorlik, o‘z joniga qasd qilish va h.k.).

◆ 2. Delikvent xulq-atvor tushunchasi va mohiyati

Delikvent xulq-atvor aynan qonunbuzarlik yoki huquqbuzarlik bilan bog‘liq bo‘lgan salbiy deviatsiya shaklidir. Bu tushuncha ko‘proq o‘smirlar va yoshlarga nisbatan qo‘llaniladi va ular tomonidan sodir etilgan jinoyat yoki huquqbuzarliklarni anglatadi.

Delikvent xulq-atvor huquqiy jihatdan baholanadi va unga nisbatan sud-huquqiy choralar ko‘riladi. Bu holat jamiyatda xavotir uyg‘otadi, chunki delikvent xatti-harakatlar keyinchalik og‘irroq jinoyatlarga olib kelishi mumkin.

◆ Delikvent xulq-atvor turlari:

Maishiy huquqbuzarliklar – urush-janjal, odobsizlik, xulq buzarlik.

Jinoyat sodir etish o‘g‘irlik, bezorilik, zo‘ravonlik, vandalizm.

Maktab intizomini buzish dars qoldirish, o‘qituvchiga hurmatsizlik.

Narkotik vositalar, spirtli ichimliklar iste’moli.

Yoshlar o‘rtasidagi jinoiy guruhlarga qo‘shilish.

Aspekt	Deviant xulq-atvor	Delikvent xulq-atvor
<b>Mazmuni</b>	Ijtimoiy me’yordan og‘ish	Huquqiy me’yordan og‘ish
<b>Baholanishi</b>	Jamiyat tomonidan nomaqbul	Qonun tomonidan jinoyat yoki huquqbuzarlik sifatida
<b>Subyekt</b>	Har qanday yoshdagi shaxs	Ko‘proq o‘smirlar va yoshlar
<b>Misollar</b>	G‘ayritabiyy kiyinish, norasmiy guruhlarga qo‘shilish	O‘g‘irlik, tajovuz, vandalizm, jinoyat

**1-jadval. Deviant va delikvent xulq-atvor o‘rtasidagi farqlar**

Deviant xulq-atvor muammosi sotsiologiya fanida ilk bor E.Dyurkgeym tomonidan ilmiy asosda o‘rganilgan bo‘lsa-da, bu muammo insoniyat tarixining eng qadimiy davrlaridan beri mavjud bo‘lib kelgan. Tarixiy jarayonlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, deviant holatlarga bo‘lgan munosabatlar avvalo diniy-mifologik qarashlar asosida shakllanganini ko‘rish mumkin.

Xususan, Qadimgi Misr, Hindiston va Xitoy kabi sivilizatsiyalarda mavjud bo‘lgan diniy qonun-qoidalar, axloqiy me’yorlar va ijtimoiy qadriyatlar inson xulq-atvorini tartibga solishga xizmat qilgan. Bu qadimiy jamiyatlarda norma va me’yordan og‘ish holatlari ko‘pincha g‘ayritabiyy hodisa, jinoyat, yoki ma’naviy buzulish sifatida qabul qilingan va ularning oldini olish uchun diniy jazolar yoki axloqiy ta’sir vositalari qo‘llanilgan.

Shuningdek, Qadimgi Yunon va Rim faylasuflari – Platon, Aristotel, Seneka kabi mutafakkirlar o‘z asarlarida inson xulq-atvoridagi og‘ish holatlarini, axloqiy buzilishlarni, jamiyat va qonun o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur tahlil qilganlar. Ular deviantlikni nafaqat ijtimoiy zarar nuqtayi nazaridan, balki falsafiy va ma’naviy jihatdan ham izohlab bergenlar. Shu bois, deviant xulq-atvor muammosi insoniyat taraqqiyoti davomida turli ijtimoiy, madaniy va dini tizimlarda turli shakllarda namoyon bo‘lgan va har bir tarixiy bosqichda unga bo‘lgan munosabatlar jamiyatning umumiy rivojlanish darajasini aks ettirgan.

Date: 25<sup>th</sup> April-2025



O'rta asrlarda axloqiy me'yirlarning shakllanishi va nazorat qilinishi asosan diniy dunyoqarashlar bilan chambarchas bog'liq edi. Bu davrda jamiyat hayotining barcha jabhalarida diniy qadriyatlar hukmronlik qilgan. G'arbiy Yevropada xristian dini, ayniqsa katoliklik, ijtimoiy me'yorlar tizimini belgilovchi asosiy kuchga aylangan bo'lsa, Sharq mamlakatlarida esa axloqiy-huquqiy me'yorlar va ularni tushuntiruvchi ta'limotlar islom falsafasi asosida shakllangan. Bu jarayonda Qur'oni-karimda va Hadislar asosida jamiyatda amal qilinadigan me'yor va qadriyatlar belgilab qo'yilgan, ularni buzish esa diniy jihatdan gunoh sifatida baholangan.

XVIII-XIX asrlarga kelib, Yevropada ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot, sanoat inqilobi va ma'rifatparvarlik harakatlari tufayli jamiyatda axloqiy me'yorlar masalasiga dunyoviy yondashuv shakllana boshladi. An'anaviy diniy me'yorlar yangi ijtimoiy-siyosiy sharoitga mos kelmay qolgan, bu esa ijtimoiy me'yor va normalardan og'ish holatlarini tahlil qilishni ilmiy zaruratga aylantirgan.

XVIII asr mutafakkirlari – Sharl Lui Monteske, Jan-Jak Russo, Ch.Bekkaria, B.S.Gelvetsiy, Deni Didro, Pol Golbax, Morelli va Sh.Furye – o'z asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy tartib va me'yirlarga, ularning buzilishi va natijalariga oid fikrlarni chuqr o'rganib chiqdilar. Ular ijtimoiy tartibni faqat diniy jihatdan emas, balki inson tabiatiga, aqlga va tabiat qonunlariga tayangan holda tahlil qilishga harakat qildilar. Ayniqsa, Ch.Bekkarianing jinoyat va jazoga oid qarashlari, inson xatti-harakatlarining sabablarini aniqlashga qaratilgan tahlillari keyingi ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga zamin yaratdi.

XIX asr oxirlariga kelib, tabiiy fanlardagi yutuqlar (evolyutsion nazariya, eksperimental metodlar, statistik tahlil) ijtimoiy fanlarga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Aynan shu davrda sotsiologiya mustaqil fan sifatida shakllandi. Ijtimoiy me'yor va og'ish holatlariga oid birinchi ilmiy-nazariy qarashni Emil Dyurkgeym ilgari surdi. U o'zining "anomiya" nazariyasini orqali jamiyatda me'yoriy tartib buzilishining asosiy sabablarini ochib berdi. Anomiya (fransuzcha anomie – "me'yorsizlik") – bu jamiyatdagi qadriyatlar tizimi inqirozga uchragan holat, ya'ni mavjud me'yorlar ahamiyatini yo'qotadi, yangi me'yorlar esa hali shakllanmagan bo'ladi. Bu esa insonlarning xulq-atvorida tartibsizlik, noaniqlik va beqarorlikni keltirib chiqaradi, jamiyat esa o'zining ijtimoiy institutlari orqali ushbu inqirozga qarshi kurashishga harakat qiladi.

Sotsiologiya fanining shakllanishida ijtimoiy patologiya va deviant xulq-atvor muammosiga e'tibor qaratilishi alohida ahamiyatga ega. Jamiyat hayotidagi nomuvofiqliklar, me'yordan chetga chiqishlar va bu kabi holatlarning sabab hamda oqibatlarini o'rganish sotsiologiyaning mustaqil ilmiy sohaga aylanishida muhim bosqich bo'lgan.

Ushbu yo'nalishda E.Dyurkgeymning xizmatlari alohida ta'kidlanadi. U tomonidan yozilgan to'rtta asosiy asardan biri 1897 yilda yozib qoldirgan "O'z joniga qasd qilish" kitobi deviant xulq-atvor muammosini sotsiologik yondashuv asosida tahlil qilgan ilk ilmiy ish hisoblanadi. Dyurkgeym ushbu asarida o'z joniga qasd qilish holatlarini faqat shaxsiy psixologik sabablar bilan emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy bog'liqlik darajasi, ma'naviy muvozanat va ijtimoiy tartibning buzilishi bilan izohlagan. Bu esa deviantlikni ijtimoiy hodisa sifatida tushunishga asos bo'ldi.

Date: 25<sup>th</sup> April-2025



Amerika sotsiologiyasida esa E.Saterlendning differensial aloqalar nazariyasi katta e'tibor qozondi. Saterlendga ko'ra, har qanday xulq-atvor, shu jumladan deviant xulq-atvor ham ijtimoiy muhitda o'r ganiladi. Insonlar jamiyatda turli guruqlar bilan muloqotda bo'lib, shu orqali qanday xatti-harakat maqbul yoki nomaqbul ekanligini anglab yetadilar. Demak, deviantlik – bu tug'ma emas, balki ijtimoiy ta'sir natijasida shakllanadigan xulqdir.

Deviant xulq-atvorni tahlil qilishda R.Mertonning strukturaviy-funksional yondashuvi muhim o'rin tutadi. U Dyurkgeymning anomiya konsepsiyasini rivojlantirib, deviantlikni jamiyatdagi rasmiy me'yor va qadriyatlar bilan aholining xulq-atvor motivlari hamda ularga erishish imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosiblik natijasi sifatida izohladi. Merton deviant xulq-atvorni ijtimoiy struktura ichidagi muvofiqlikning buzilishi deb qaraydi. U jamiyat tomonidan belgilangan muvaffaqiyat mezonlariga erishish uchun barcha qatlamlarda teng imkoniyatlar mavjud emasligini ta'kidlab, ana shu ziddiyat deviantlikka olib kelishini ko'rsatadi.

Deviant xulq-atvor deganda, jamiyatda yozilgan va yozilmagan me'yorlarga mos kelmaydigan har qanday xatti-harakatlar tushuniladi. Bu me'yorlar nafaqat huquqiy, balki madaniy, axloqiy va an'anaviy normalarni ham o'z ichiga oladi. Ko'plab jamiyatlarda qadriyat va urf-odatlarga zid bo'lgan harakatlar – masalan, kiyinish uslubi, soch turmag'i yoki har qanday "noan'anaviy" fikrlar qattiq nazorat ostida bo'lgan. Deviatsiyaga qarshi kurash ko'p hollarda faqatgina tashqi belgilar yoki shaxsiy xatti-harakatlarga qarshi yo'naltirilgan, bu esa ko'pincha kutilgan natijani bermagan. Aksincha, deviant xulq-atvor yanada aniqroq, ochiqroq shaklda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, 1980-yillarda yoshlarning G'arb modasiga ergashishi ayrim jamiyatlar tomonidan ijtimoiy muammo sifatida baholangan bo'lsa-da, bu holatni to'xtatish deyarli imkonsiz bo'lgan.

Ko'pchilik jamiyatlarda deviant xulq-atvor nosimmetrik xarakterga ega: ya'ni jamiyatga zarar yetkazuvchi og'ishlar qoralanadi, ammo jamiyatga foyda keltiruvchi "ijobiy deviantlik" holatlari qo'llab-quvvatlanadi. Shu nuqtai nazardan, deviantlikni faqat salbiy hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy innovatsiyalar, o'zgarish va rivojlanish manbai sifatida ham ko'rish mumkin.

Jamiyatda har bir inson biror ma'noda deviant bo'lishi mumkin: bu holat o'g'rilik, firibgarlik kabi og'ir buzilishlardan tortib, ishga kechikish, avtobusda chiptasiz yurish yoki belgilangan joyda tamaki chekmaslikgacha bo'lgan keng ko'lamli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun deviant xulq-atvorga baho berishda uning miqdori, shakli va ijtimoiy konteksti hisobga olinishi zarur.

Tor ma'noda esa deviant xulq-atvor – qonunlarga zid bo'lmanan, biroq jamiyatda qabul qilingan axloqiy, madaniy yoki an'anaviy me'yorlardan chetga chiqishlardir. Ularning tahlili orqali jamiyatdagi ijtimoiy nazorat mexanizmlari, qadriyatlar tizimi va o'zgarishlarga bo'lgan munosabat o'r ganiladi.

Deviant xulq-atvorning keng tarqalgan shakllari:

1. Jinoyatchilik. Jinoyatchilik davlat tomonidan belgilanadigan qonun va me'yorlarni buzishga asoslangan xatti-harakat bo'lib, uni sodir etgan shaxs jamiyat tomonidan "jinoyatchi" deb tan olinadi. Bu deviant xatti-harakatning eng jiddiy shaklidir.

Date: 25<sup>th</sup> April-2025

2. Ichkilikbozlik. Ichkilikbozlik spirtli ichimliklarni haddan tashqari yoki nazoratsiz iste'mol qilish bilan bog'liq deviant xulq-atvor. Uch asosiy bosqichga bo'linadi:

a) Ba'zida ichish ijtimoiy sharoitga bog'liq holda spirtli ichimliklardan foydalanish.

b) Muntazam ichish haftasiga bir necha bor yoki ko'p miqdorda (masalan, 200 ml dan ortiq) ichish.

c) Alkogolizm organizmda jismoniy va ruhiy qaramlik yuzaga kelgan holat, ya'ni spirtli ichimliklarga patologik o'rghanish.

3. Giyohvandlik. Giyohvandlik narkotik vositalar yoki psixotrop moddalarga qaramlik bilan ifodalanadi. Bu moddalarni noqonuniy ishlab chiqarish, tarqatish va iste'mol qilish qonun bilan qat'yan taqiqlangan.

4. Byurokratiya. Byurokratiya dastlab "hokimiyatga ega bo'lgan xodimlar" boshqaruvi ma'nosini bildirgan. Biroq zamonaviy davrda u salbiy ma'noga ega bo'lib qolgan:

Mahalliychilik,

Qog'ozbozlik,

To'rachilik,

Mansabni suiiste'mol qilish,

Ish jarayonining ortiqcha murakkabligi,

shaklida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy sotsiologiyada deviatsiya, ya'ni ijtimoiy me'yordan og'ish sabablari orasida jamiyat tomonidan belgilangan maqsadlar va ularga erishish uchun mavjud ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadigan vositalar o'rtasidagi nomutanosiblik muhim omil sifatida ko'rildi. Bu holat odamlarni odatdagi me'yoriy yo'ldan chetga chiqishga, ya'ni deviant xatti-harakatlarga olib keladi.

Amerikalik sotsiolog Robert Merton bu masalani chuqur tahlil qilib, jamiyatga moslashishning bir necha turini ajratib ko'rsatadi. U o'z nazariyasini, asosan, boylikka erishish jamiyatda asosiy maqsad sifatida ilgari surilgani, biroq barchada bunga erishish imkoniyati teng emasligi misolida tushuntiradi<sup>14</sup>.

Merton tomonidan ajratilgan moslashuv shakllari:

Konformizm. Jamiyatda belgilangan maqsad va vositalarni qabul qilish.

Innovatsiya. Maqsadni tan olish, ammo unga erishish uchun noqonuniy yoki ruxsat etilmagan vositalardan foydalanish.

Ritualizm. Maqsadlardan voz kechish, biroq ijtimoiy qoida va tartiblarga sodiq qolish.

Retretizm. Ham maqsad, ham vositalardan voz kechish.

Isyon. Amaldagi maqsad va vositalarni inkor etib, ularning o'rniga yangi maqsad va vositalarni taklif qilish.

<sup>14</sup> Merton, R. K. Social Theory and Social Structure (Enlarged ed.). New York: Free Press. 1968. P-23

Date: 25<sup>th</sup> April-2025

Deviatsiya shakllari. Ijtimoiy me'yorlarning buzilishi ongli yoki ongsiz, jiddiy yoki nojiddiy bo'lishi mumkin. Agar bunday xatti-harakat qonunga zid bo'lsa, bu holat delinkvent xatti-harakat deb yuritiladi. Bu tushuncha, asosan, yoshlar yoki jinoyatchilikka moyil shaxslarning ijtimoiy me'yorlarni buzgan holatlarini anglatadi.

Amerikalik sotsiolog Howard S. Becker (1963) o'zining yorliqlash nazariyasida "qoidabuzarlik" va "deviantlik" tushunchalari o'rtasidagi muhim farqni ochib bergan. Uning fikricha, "deviant" atamasi har doim ham xatti-harakatning o'zini emas, balki jamiyatning unga bo'lgan munosabatini bildiradi. Barcha qoidabuzar harakatlar deviant hisoblanmaydi, chunki jamiyat ayrim harakatlarga e'tibor bermasligi yoki ularni muqarrar deb qabul qilishi mumkin. Ayni paytda, "deviant" deb belgilangan har bir shaxs ham real ravishda qoidalarni buzmagan bo'lishi mumkin<sup>15</sup>.

Shuningdek, Bekker deviantlik tushunchasining nisbiyligini ta'kidlaydi. Ba'zida biror xatti-harakatning deviant deb tan olinishi unga yo'l qo'ygan shaxsning ijtimoiy mavqeい, sinfiy mansubligi yoki irqiga bog'liq bo'ladi. Masalan, o'rta sinfga mansub voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi sud tizimi tomonidan kamroq jiddiy baholanadi.

Deviant xatti-harakatlarning asosiy turlari

Deviantlik har doim salbiy bo'lishi shart emas - u ba'zida jamiyatdagi muammolarni ochib beruvchi yoki ijtimoiy o'zgarishlarga turtki beruvchi ijobiy deviantlik sifatida ham qaraladi. Shu bilan birga, deviant xatti-harakatlar odatda quyidagi uch guruhga bo'linadi:

### 1. Antisosial deviatsiya

Bu turdag'i xatti-harakatlar qonun va ijtimoiy tartib-qoidalarga zid bo'ladi va jamiyatga bevosita zarar yetkazadi.

Kichik yoshdagilar orasida: zo'ravonlik, o'g'irlik, mulkka zarar yetkazish.

O'smirlar orasida: xuliganlik, vandalizm, giyohvandlik.

Kattalar orasida: jinoyatlar, huquqiy javobgarlikka sabab bo'ladigan xatti-harakatlar.

### 2. Asotsial deviatsiya

Jamiyat tomonidan axloqiy jihatdan nomaqbul deb topilgan harakatlar.

Bunga: befarqlik, ichkilikbozlik, odobsizlik, ijtimoiy qadriyatlarga zid xulq-atvorlar kiradi.

### 3. O'z-o'zini yo'q qiluvchi deviatsiya

Shaxs o'z sog'lig'i yoki hayotiga qasddan zarar yetkazadigan xatti-harakatlar.

Masalan: o'z joniga qasd qilish, o'ziga jismoniy zarar yetkazish, o'ta darajadagi spirtli ichimlik yoki giyohvand moddalar iste'moli.

Fikrimizcha Bekkerning yondashuvi bizga deviantlikni shunchaki "qoidabuzarlik" deb emas, balki ijtimoiy baho va munosabat mahsuli sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Bu nazariya, ayniqsa, huquqiy va ijtimoiy tengsizlik muammolarini chuqurroq tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

<sup>15</sup> Becker, Howard S. Labeling Theory Reconsidered. In P. Rock and M. McInotch (eds.). Deviance and Social Control (1974). (pp. 41-66). London: Tavistock.

Date: 25<sup>th</sup> April-2025

Delinkvent xulq-atvor va Cesare Lombroso nazariyasi. Delinkvent xulq-atvorning sabablari haqida turli nazariyalar mavjud bo‘lib, ularning eng mashhurlaridan biri – Italiyalik kriminolog Cesare Lombroso tomonidan ilgari surilgan biologik (genetik) yondashuvdir<sup>16</sup>. Lombrosoga ko‘ra, ayrim insonlar jinoyatga tug‘ma moyillikka ega bo‘lib, bu holat ularning jismoniy xususiyatlarida aks etadi. Ushbu nazariya doirasida Lombroso jinoyatchilarni o‘rganib, ularning ko‘pchiligi "atavistik" belgilari – ya’ni insoniyatning ibtidoiy ajdodlariga xos bo‘lgan xususiyatlarga ega ekanligini aniqlagan. Unga ko‘ra, jinoyat sodir etishga moyil shaxslar quyidagi jismoniy xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin:

Past peshona,

Keng jag‘ suyaklari,

Katta quloqlar,

Qalin qoshlari,

Bosh suyagidagi o‘zgarishlar va boshqa morfologik farqlar.

Lombroso bu belgilarni jinoyatchilikning biologik ildizlari deb hisoblagan va jinoyatchilarni evolyutsiya jarayonida to‘liq rivojlanmagan, orqada qolgan shaxslar sifatida tasvirlagan.

Garchi ushbu nazariya bugungi kunda ko‘plab tanqidlarga uchragan bo‘lsa-da, u kriminologiya fanining tarixiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Zamonaviy ilm esa jinoyatchilikni tushuntirishda biologik omillar bilan bir qatorda psixologik, ijtimoiy va madaniy omillarni ham inobatga oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Merton, R. K. Social Theory and Social Structure (Enlarged ed.). New York: Free Press. 1968. P-23
2. Becker, Howard S. Labeling Theory Reconsidered. In P. Rock and M. McInntoch (eds.). Deviance and Social Control (1974). (pp. 41-66). London: Tavistock.
3. Lombroso, C. (1876). The Criminal Man. G. P. Putnam's Sons, New York and London: Knickerbocker Press, 1911. P. 131.

<sup>16</sup> Lombroso, C. (1876). The Criminal Man. G. P. Putnam's Sons, New York and London: Knickerbocker Press, 1911. P. 131.